



BUGUNGI KUNDA JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKDAN ISHONCHLI HIMOYA QILISH

Xushvaqtov Erkin Temirovich

IIV Malaka oshirish instituti Maxsus kasbiy fanlar kafedrası
katta o'qituvchisi podpolkovnik

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21024238>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 27-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 29-iyun 2026 yil

KEYWORDS

Ichki ishlar organlari, jamiyat, xotin-qizlar, inson hayoti, erkinlik, tabiiy huquqlar, tazyiq va zo'ravonlik, himoya, kafolat.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ichki ishlar organlari tomonidan jamiyatda xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini tazyiq va zo'ravonlikdan ishonchli himoya qilinishini ta'minlashda shuningdek tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish tartibiga ilmiy asoslangan ma'lumotlar berilgan.

Mamlakatimiz taraqqiyoti yangi bosqichida erishilgan natijalarning asosiy omili inson va uning manfaatlari bilan bevosita bog'liq. Shu bois inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoiti yaratish, adolatli huquqiy davlat barpo etish demokratik islohotlarning bosh maqsadiga aylangan¹.

Davlatimiz rahbari ayollarning huquqiy himoyasini kuchaytirish masalasiga alohida urg'u berib, bugungi kunda tazyiq va zo'ravonlikka uchragan ayollarni himoyaga olish tizimini takomillashtirish zarurati bor ekanini qayd etdi. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, "Yuksak bilim va malakaga ega bo'lgan oqila ayollarimiz hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlarida nufuzli o'rinni egallab, xotin-qizlarimizning, xalqimizning ishonchli vakillari sifatida faoliyat olib borishi uchun keng imkoniyat ochib bersak, bu holat ijtimoiy hayotimizda doimiy an'anaga aylansa, ishonchim komilki, oldimizda turgan barcha muammolarni adolatli yechishda, huquqiy-demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida salmoqli qadam qo'ygan bo'lamiz".

Afsuski, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, salbiy holatlar, ya'ni xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlik va tazyiqlar, o'z huquq va erkinliklaridan foydalanishda to'siqlar hali ham uchrab turibdi. Qolaversa, xotin-qizlar orasida o'z huquqlarini yaxshi bilmaydigan, muntazam qiynoqqa uchragani uchun qo'rqqoq, ojiz, himoyasiz bo'lib qolganlar ham bor. Ko'p holatlarda ular sud yoki boshqa organlarga murojaat qilmay, oilaviy zo'ravonlikka chidab yashab kelmoqda, Yanada achinarlisi, bu zo'ravonlikka uning voyaga etmagan farzandlari ham guvoh bo'lib, ularning yaxshi muhitda tarbiyalanish huquqlari buzilayotir. Bolalarning kelajakka ishonchi yo'qolyapti, ta'lim olishga bo'lgan layoqati pasaymoqda, ruhiy holatida keskin muammolar kelib chiqyapti, shu orqali ota-onalik

¹ <https://senat.uz/oz/articles/post-946>

maqomiga putur etyapti. Oiladagi zo'ravonlik bilan bog'liq huquqbuzarliklar jabrini birinchi galda ayollar tortadi. Bu ko'plab ayollarning huquqlari toptalishiga, turmush tarzidan qoniqmay, hatto, o'z joniga qasd qilish darajasigacha borishiga, voyaga etmagan farzandlarning ona mehridan erta judo bo'lishiga sabab bo'ladi. Xo'sh, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish tartibi o'zi qanday? Himoya orderi ichki ishlar organlarining tayanch punkti profilaktika (katta) inspektori tomonidan belgilangan Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-son [qaroriga](#) muvofiq beriladi.

Quyidagilar himoya orderini berish uchun asos hisoblanadi:

- tazyiq va zo'ravonlik qurbonining murojaati;
- jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarlar, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari va (yoki) ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan xabarlar;
- tazyiq yoki zo'ravonlik sodir etish yoxud ularni sodir etishga urinish holatlarining vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlari tomonidan bevosita aniqlanishi;
- davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan olingan materiallar.
- Jabrlanuvchiga nisbatan bir kalendar yil davomida ikki va undan ortiq marta tazyiq hamda zo'ravonlik holati aniqlanganda, profilaktika inspektori himoya orderini tashabbus tartibida beradi.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilishni amalga oshiruvchi vakolatli organlar va tashkilotlar jabrlangan xotin-qizlar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgach tegishli [shakldagi](#) xabarnomani darhol ichki ishlar organlariga taqdim etadi. Profilaktika inspektori ichki ishlar organlari navbatchilik qismlari tomonidan taqdim etilgan yoki [YAIDXP](#) orqali kelib tushgan murojaatlar va xabarlarni 24 soat mobaynida o'rganib chiqadi hamda o'rganish davomida jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxslar hamda boshqa shaxslar bilan holat yuzasidan suhbat o'tkazadi, jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning turmush tarzi, tazyiq va zo'ravonlik sodir etilishining kelib chiqishi sabablari va shart-sharoitlarini, shuningdek, bir kalendar yil davomida mavjud bo'lgan tazyiq hamda zo'ravonlik holatlarini o'rganadi, jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarni ijtimoiy reabilitasiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

Himoya orderi 1 yil muddatgacha beriladi va ushbu order rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Himoya orderi amal qilishi davrida xavf bartaraf etilmagan bo'lsa, himoya orderining amal qilish muddati jabrlanuvchining arizasiga ko'ra 1 yilgacha muddatga jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Himoya orderining amal qilishi quyidagi holatlarda tugatiladi:

- jabrlanuvchi himoya orderini tugatishni so'rab murojaat qilganda;
- himoya orderida belgilangan muddat (uzaytirilgan muddat) tugaganda;
- jabrlanuvchi yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxsdan biri sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;
- sodir etgan jinoyati uchun jabrlanuvchi yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning biriga nisbatan qamoq ehtiyot chorasi qo'llanganda;
- jabrlanuvchilar yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning biri sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum etilganda;
- jabrlanuvchilar yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning biri majburiy davolanishga yuborilganda;

- jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning biri qonun xujjatlariga muvofiq doimiy yashash joyidan uzoq muddatga boshqa mamlakatga chiqib ketganda;
- jabrlanuvchi va zo'ravonlik sodir etgan shaxslardan biri vafot etganda.

Himoya orderini berish faoliyati ustidan ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari tomonidan monitoring olib boriladi.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda [Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan](#) shaxslarga **"oila - mahalla - tuman va hudud"** tamoyili asosida kompleks ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi joriy etilgan. Jumladan, 2024 yil 1 iyundan tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan yoki jabrlanish xavfi ostida bo'lgan xotin-qizlarga himoya orderi talab etmagan holda ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmatlar ko'rsatish tartibi joriy etildi, xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holati ichki ishlar organlari navbatchilik qismining "102" telefon raqamlariga kelib tushgan murojaatlar asosida ro'yxatga olinadigan, tazyiq va zo'ravonlik holati yoki ularni sodir etish xavfi aniqlangan paytdan e'tiboran 24 soat ichida quyidagilar amalga oshiriladi. Xotin-qizlar faoli va mahalladagi profilaktika inspektori ishtirokida tazyiq va zo'ravonlikni sodir etgan shaxs bilan suhbat o'tkaziladi, profilaktika inspektori tomonidan himoya orderi rasmiylashtiriladi, tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar va ularning voyaga etmagan farzandlari markaziy tuman (shahar) shifoxonalarining shoshilinch qabul bo'limlariga joylashtiriladi, rasmiylashtirilgan himoya orderlari va jabrlangan shaxslarga doir ma'lumotlar "Inson" markazlariga "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali yuboriladi. Tazyiqdan jabrlangan shaxslarga ruhiy inqiroz holatida birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish maqsadida, shoshilinch qabul bo'limlarida tunu kun ishlaydigan birlamchi ko'mak xonalarida tashkil etildi.

2024 yil 1-iyundan Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlarida, 2024 yil 1 oktyabrdan Respublikaning qolgan barcha hududlarida birlamchi ko'mak xonalarida, jismoniy va ruhiy holatini yaxshilash uchun tazyiq va zo'ravonlikka uchragan, o'z joniga suiqasd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlar hamda ularning voyaga etmagan farzandlari 3 sutkadan ko'p bo'lmagan muddatga joylashtiriladigan, shoshilinch birinchi yordam, shu jumladan ruhiy, psixoterapevtik yordam ko'rsatiladi, shuningdek, yuqumli kasalliklar mavjudligi to'g'risida tahlillar o'tkaziladigan, 2024 yil 1 oktyabrdan himoya orderi berilgan har bir holatda tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxsning zo'ravonlik xulq-atvorini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturi "Inson" markazlari bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan, 2025 yil 1 yanvardan ichki ishlar organlari tomonidan tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan yoki sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning reyestri yuritiladigan, 2024 yil 1 dekabrdan bir kalendar yil davomida ikki va undan ortiq marta tazyiq va zo'ravonlik holati bo'yicha murojaat qilinganda ichki ishlar organlari tomonidan himoya orderi tashabbus tartibida beriladigan bo'ldi.

Hulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, kelgusida ayollarning tazyiq va zo'ravonlikdan himoyasi sud tomonidan ta'minlanishi, alohida himoyaga olish muddatining bir yilgacha belgilanishi esa ularga etarli darajada psixologik, ijtimoiy, huquqiy yordam berilishi va ish bilan ta'minlanishiga xizmat qiladi. Xotin-qizlar huquqlarini ishonchli himoya qilish, ularga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olish, shu harakatni sodir etgan shaxslarga adolatli jazo choralarini belgilash, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash hamda bolalar va xotin-qizlar huquqlari bilan bog'liq xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o'rnini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. 01.05.2023 yil. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son
2. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 16 sentyabrdagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ №-407-son Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 02.09.2019 yildagi O'RQ-561-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.05.2024 yildagi PQ-175-son "Tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 04.01.2020 yildagi 3-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
5. F. Eshmatova "Xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir". <https://ombudsman.uz/uz/docs.2021y>
6. <https://gendermadad.uz/uz/document>.
7. <https://senat.uz>

